

## “LISON UT-TAYR”DOSTONINING NA'T QISMI TAHLILI .

**Tolipova Zarnigor Abdurasul qizi**  
*FarDu filologiya fakulteti 2-kurs talabasi*

**Annotatsiya:** *Mazkur maqolada Alisher Navoiyning “Xamsa”si haqida ma'lumot va “Lison ut-tayr”dostonining na't qismi tahlili berildi. Ramziy obrazlar talqini tahlilga tortildi.*

**Kalit so'zlar:** *na't , xamsachilik, so'z mulkining sultoni , irfon , tarbiya.*

Sharq adabiyotida shakllangan “xamsachilik “ asosi Nizomiy Ganjaviy bilan uzviy bog'liqdir. Nizomiy birinchi bo'lib xamsa yaratishga asos soldi. U o'z xamsasini “ Panj Ganj” (Besh xazina )deb nomladi. Xamsachilik an'anasiga ko'ra 1-doston axloqiy- falsafiy ruhda yozilishi kerak edi. 2-3 dostonlarda sevdi kuylangan. 4- dostonda shohlar orqali adolat tasvirlangan. 5-doston xulosa shaklida bitiladi.

Musulmonchilik adabiyoti lirikasi sultoni Alisher Navoiy o'z xamsasini qisqa vaqt davomida yaratgan bo'lishiga qaramay o'z o'rnini yuqoridan egalladi. Undagi mazmun ko'lami va ramzi tuslar alohida zeb bag'ishlagan. Navoiy xamsa yaratish jarayonida yana biror vatanparvarlik ruhini ko'rsata oldi va o'z dostoni turkiy tilda, ona tilida bitdi.

So'z mulkining sultoni Alisher Navoiyning falsafiy dostoni bo'lmish “Lison ut-tayr “ dostonida kamolot va yuksaklik sari qadamni yorqin ifoda etdi. Mazkur dostonda majoziy obrazdagi qahramonlar sarguzashtini va o'z g'oyasini yetkazib berdi .

“Lison ut-tayr “ 1499-yilda yozilgan irfoniy doston bo'lib, hajman 193- bob ,3666 baytdan iborat .Dostonning yozilish sababi otasi unga olib bergan “ikki qo'y “bahosidagi “Mantiq ut-tayr “ asari bo'ladi.

Turk nazmida chu men tortib alam  
Ayladim ul mamlakatni yakqalam  
Munchakim nazm ichra qildim ishtig'ol  
MIXotirdin chiqmas erdi bu hayol  
Kim bu daftarg'a berib tavfiq Haq  
Tarjuma rasmi birla yozsam varoq  
Otmush umr qoyg'onda qo'ydim qadam  
Qush tilin shark etgoli yo'ndum qilaman

“Lison ut-tayr “ dostoni musaddasi maqsur vaznjda yozilgan bo'lib Navoiyning ilohiyot haqidagi qarashlari o'z aksini topadi. Doston muqaddimadan boshlanadi. Muqaddima 13 bobdan iborat bo'lib ,odatdagidek birinchi bob Alloh hamdiga bag'ishlangan. Navoiy fikricha bir -biriga zid bo'lgan to'rt unsur ham aslida uyg'undir.

“Uylakim duskiman yaratib o'tqa suv  
Yerni ham tufroqqa aylab adv  
Sunidin ko'rgilki muntoq to'rt zid  
Bo'lub inson xilqotida mutakkir  
Ofarinislidan qilib inson g'araz  
Oni ayblab xalq ichinda bevaraz”.

“Lison ut-tayr “shoir umrining so'ngida yozilgan doston bo'lib ,unda inson va tabiat o'rtasidagi bog'liqlik poetika orqali ko'rsatigan. Dostonning na't qismi 3-4 boblarini o'z ichiga oladi. Ushbu bobda odam yaralishi Odam Atodan to Rasuli akram payg'ambarimizgacha bo'lgan davr haqida so'z yuritadi.

“U nabilar sarvari va payg'ambarlar sultoni bo'lib, uning tufayli ulug' va mayda narsalar yaraldi.U Odam Atodan ham ilgari mavjud bo'lib ,ham nabi, ham sirlar ogohi erdi “ deb ta'rif berdi.

Dostonning 5-bobi Abu Bakr Siddiqqa ta'rif bo'ldi.Navoiy bu zotni “sodiq u siddiq” deb ta'rifladi. Dostonda Navoiy Payg'ambarimizning g'or ichidagi xazinaga, Abu Bakr Siddiqni Ushbu xazinani qo'riqlayotgan ajdarhoga o'xshatdi:

“Sodiq-u ,siddiq -u hamrozi oning  
Har yomon yaxshida damsozi owning  
Ganji g'or ichra pinhonlib qilib,  
Ajdarhodek ul nikoh borlik qilib”.

8-bob Hazrat Umar Foruqqa bag'shlangan hikoyalardan iborat.

9- bob Hazrat Usmon (r.a) haqida bo'lib , ul zotga “zunnarayn”laqabi borilgan, sababi payg'ambarimizning ikki qizlariga uylangan bo'ladi. Alisher Navoiy esa Usmon ibn Affon deb yozadi:

“Tengri aylanib jone Qur'on oni  
Xalq deb Usmon bin Affoni”.

Xulosa: “Lison ut-tayr “ dostoni bilan tanishar ekansiz undagi majoziy obrazlar kitobxonni qiziqтира oladi. Doston xaq vasliga yetishish va bu yo'ldagi azob-uqubatlarni Semurg' orqali ochib berilgan.Dostonda qushlar dunyosi orqali ramziy obrazlar mahorat bilan chizilgan. Dostonda 65 ta hikoyalar jamlangan. Jami 1800- baytni o'z ichiga oladi. Dostondagi hikoyalar quyidagi guruhlarga bo'linadi:

1. Hudhud va Semurg' qushlari boshchiligidagi hikoyalar.
2. Tarixiy shaxslarga oid hikoyalar.
3. Falsafiy- tasavvufiy fikrlar bayoni jamlangan hikoyalar.

Navoiy ushbu dostonni “Mantiq ut-tayr”dan ilhomlanib yaratganligi sabab undagi voqea ,hodisalar ,obrazlar bir- biriga o'xshab ketadi. Muallifi bosh qahramon - Hudhud orqali inson timsolini va undagi hayotim voqealarni chizib bera oldi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

- 1.MAT 20 jildlik 16 .Tom (Toshkent.2000)
- 2.Navoiyning ijod olami (Toshkent.2001)
3. Alisher Navoiyning “Mukammal asarlari” to'plami (Toshkent.1996)
4. Mamadaliyeva Z. “Lison ut-tayr “ obrazlari: ramz va majoz olami( Toshkent.2014)
5. Sharapova Sh. “Lison ut-tayr “ haiqati (Toshkent. 1998)